
Tuman hokimi 3-dekabr "Halqaro nogironlar kuni" munosabati bilan nogironlar holidan xabar oldi

Har yili 3 dekabr sanasida nogironligi bo'lgan shaxslar kunining nishonlanishidan asosiy maqsad butun dunyoda amalga oshiriladigan dastur va loyihalarda nogironlar boshqa nogiron bo'lmagan kishilar bilan teng huquqlilik asosida ishtirok etishini, nogironlarning manfaatlari, huquqlari inobatga olinishini, barcha mamlakatlarda nogironlarning qadr-qimmatini himoyalovchi qonunlar va tartib-taomillarning joriy etilishini ta'minlab, barcha uchun ochiq va do'stona bo'lgan jamiyat qurishdan iboratdir. Rishton tumanida ham nogironligi bo'lgan fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatimizning to'laqonli a'zosi ekanliklarini ko'rsatish maqsadida turli tadbir va islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan 3 dekabr "Halqaro nogironlar kuni" munosabati bilan tuman Rishton tumani hokimi S.Soliev, "Qo'yi Avazboy" va "Jahonobod" mahallalarida yashovchi nogironligi bo'lgan bir nechta fuqarolarning holidan xabar olinib, ularning muammolari o'rganildi. Muammolarni bartaraf etish, ularning sog'ligidan doimo xabardor bo'lib turish borasida mutasaddilarga topshiriqlar berilib, "Qo'yi Avazboy" MFY yashovchi nogironligi bo'lgan fuqarolarning ikki nafariga nogironlik aravachasi topshirildi.

Shuningdek, "Jahonobod" MFY hokimi yordamchisi tomonidan ushbu mahallada yashovchi o'n nafar nogironligi bo'lgan fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Bunday tadbirlar Rishton tumani mahallalari bo'ylab davom etmoqda.

2022-12-03 13:48:06